O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SIRDARYO VILOYATI HOKIMINING

QARORI

2022 - yil 10 - dekabr 422-9-0-Q/22 Sirdaryo viloyati hokimligi

Guliston shahar "Buyuk kelajak" mahalla fuqarolar yig‘ini hududidagi bo‘sh turgan yerlardan davlat va jamoat ehtiyoji uchun doimiy foydalanishga yer uchastkasi ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi “Yer uchastkalarini davlat va jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma’muriy Reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 543-son qarori asosida hamda yer ajratish materiallari vakolatli organlar ijobiy xulosalari bilan kelishilganligini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi "Yer kodeksi"ning 5, 20-moddalari va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 25-moddalariga muvofiq **qaror qilaman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Sirdaryo viloyati bo‘yicha boshqarmasining 2022-yil 28-avgustdagi 26/824-sonli xati qanoatlantirilsin va viloyatdagi tegishli tashkilot va korxonalarning ijobiy xulosalari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Sirdaryo viloyati bo‘yicha boshqarmasiga, boshqarma harbiy xizmatchilari uchun ko‘p qavatli xizmat uyi qurish uchun Guliston tumani hududidan Guliston shahar hokimligi ixtiyoriga o‘tkazilgan Guliston shahar "Buyuk kelajak" MFY hududidagi qurilishlar, ko‘cha, hovli va maydonlar bilan band bo‘lgan yerlarning ilovadagi chizmada ko‘rsatilgan bo‘sh turgan qismidan Y-1724401/B-16849 unikal lot raqamli 45 m x 15 m o‘lchamda 0,0675 gektar yer uchastkasi davlat va jamoat ehtiyoji uchun doimiy foydalanishga ajratilsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Sirdaryo viloyati

bo‘yicha boshqarmasi (N.Arapov)ga:

Ko‘p qavatli xizmat uyi qurilishi bo‘yicha belgilangan tartibda loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqib, ekspertizadan o‘tkazilishi hamda qurilish ishlarini o‘z muddatida amalga oshirish;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi 543-son qarorining 31-bandi talablari asosida Davlat kadastrlari palatasi hududiy boshqarmasi, Qurilish bosh boshqarmasi hamda “O‘zGAShKLITI” DUK loyiha-qidiruv tashkiloti filiali bilan birgalikda yer uchastkasi chegaralarini joyida (naturada) belgilanishini ta’minlash va yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish majburiyatlari yuklatilsin.

4. Davlat kadastrlari palatasi Sirdaryo viloyati boshqarmasi (B.Minasipov) yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni davlat ro‘yxatidan o‘tkazsin hamda viloyat yer hisobotiga tegishli o‘zgartirishlar kiritsin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosarlari A.Karimov va V.Ibadullayev zimmasiga yuklatilsin.

Sirdaryo viloyati hokimi v.b **A.Maxmudaliyev**